



JANUBIY KOREYANING RASMIY AXBOROT AGENTLIGI - YONHAP NEWS: TASHKIL TOPISHI, STRUKTURASI VA ASOSIY FAOLIYAT YO'NALISHLARI

Behruz Xurramov

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Xalqaro jurnalistika fakulteti
4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Munisa Abduraxmanova**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15718915>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 15-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 23-Iyun 2025 yil

KEY WORDS

Yuqorida aytib o'tganimizdek mahalliy axborot agentliklari qanchalik kuchli va faol bo'lsa, mamlakat hududida unga bo'lgan talab shuncha yuqori bo'ladi

ABSTRACT

Bugungi kundagi ko'plab xalqaro yangilik va axborotlar "Katta to'rtlik" hisoblanmish Associated Press (AP), United Press International (UPI), Reuters va Agence France Presse (AFP) axborot gentliklaridan tomonidan taqdim etiladi. Bu agentliklar nafaqat xalqaro darajadagi mamlakatlar va hududlardan yangiliklarni to'playdi, balki dunyoning ko'plab mamlakatlari va hududlariga ham xabarlarni tarqatish faoliyati bilan shug'ullanadi.

Bugungi kundagi ko'plab xalqaro yangilik va axborotlar "Katta to'rtlik" hisoblanmish Associated Press (AP), United Press International (UPI), Reuters va Agence France Presse (AFP) axborot gentliklaridan tomonidan taqdim etiladi. Bu agentliklar nafaqat xalqaro darajadagi mamlakatlar va hududlardan yangiliklarni to'playdi, balki dunyoning ko'plab mamlakatlari va hududlariga ham xabarlarni tarqatish faoliyati bilan shug'ullanadi. Chunki ular bugungi kunda global bo'lgan jahon axborot va yangiliklarining asosiy manbalari hisoblanadi. Xalqaro axborot agentliklari o'zlarining yangiliklar mahsulotini o'z qo'l ostida bo'lgan barcha gazetalar, teleradiokompaniyalari va boshqa mijozlariga tarqatishini bevosita nazorat qilmaydi. O'z mamlakatlari uchun jahon yangiliklari bilan har tomonlama va professional tarzda shug'ullanadigan yirik axborot tashkilotlari sifatida milliy axborot agentliklarini aytishimiz mumin. Ular odatda o'z mamlakatlaridagi mahalliy ommaviy axborot vositalari uchun juda muhim xorijiy yangiliklar va axborotlar manbai bo'lib xizmat qiladi¹.

Yuqorida aytib o'tganimizdek mahalliy axborot agentliklari qanchalik kuchli va faol bo'lsa, mamlakat hududida unga bo'lgan talab shuncha yuqori bo'ladi. Biz aynan shunday kuchli, aniq va faol ish yuritadigan, nafaqat o'z mamlakati hududida, balki global dunyoda, yani jahon axborot markazida ham mustahkam o'rniga ega bo'lgan, Janubiy Koreyaning eng mashhur va ko'p tarmoqli axborot agentliklaridan biri bo'lmish **YONHAP NEWS AGENCY** haqida so'z yuritimiz. "Yonhap Koreyaning yagona mustaqil tijorat axborot agentligidir: u gazetalar, radio va televidenie va boshqa obunachilarga xizmat qiladi. Yonhap odatda xalqaro

¹ Yonhap News Agency: Gatekeeper of International News in Korea. Won Ho Chang, Jung Ho Han. Korean studies University of Hawaii'I Press. Volume 9, 1985. p.p. 14-37.

yangiliklar va fotosuratlarini AP, UPI, Reuters va AFP agentliklaridan oladi va ularni koreys tiliga tarjima qilib, mamlakatdagi barcha ommaviy axborot vositalariga tarqatadi”².

Yonhap axborot agentligining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unga 1980-yil 19-dekabrda asos solingan. Ushbu axborot agentligi Hapdong axborot agentligi va Orient Pressning birlashishi natijasida yuzaga kelgan³. Hapdong axborot agentligining o'zi esa 1945-yilning oxirida qisqa muddatli Kukje News ichidan paydo bo'ldi, u Yaponiyaning yapon mustamlakachiligi davrida Koreyada faoliyat yuritgan sobiq yapon axborot agentligi Domei ofisidan ikki oy davomida faoliyat yuritgan. Yonhap axborot agentligi Koreyaning poytaxti Seul shahrida joylashgan va u mamlakatdagi ko'plab gazeta va jurnallar, televideniya, radio tarmoqlari va boshqa barcha ommaviy axborot vositalariga nafaqat mahalliy, balki xalqaro bo'lgan eng so'nggi yangiliklar va axborotlarni, shuningdek, fotosuratlar, video va infografika mahsulotlarini tarqatadi.

Yonhap axborot agentligi 1999-yilda Naewoe News agentligini egallab olishidan avval ushbu agentlik Janubiy Koreya hukumatiga qarashli tashkilot hisoblangan va ularning vazifasi Janubiy Koreya nuqta-i nazaridan Shimoliy Koreya haqida turli xabarlar, yangiliklar va tahlillarni nashr etib borish vazifasi yuklatilgan. Aslida Naewoe News Yonhap axborot agentligidan sal kam 10 yil avval, yani 1970-yilda tashkil etilgan edi. O'sha paytlarda bu agentlik razvetka agentligi bilan aloqalarni juda yaxshi o'rnatganligi haqida yetarlicha axborotlar mavjud. Bu haqida akademik va tarixchi, Britaniyalik Jeyms Xoar: Naewoe News 1980-yillarning oxirida partizan bo'lib qoldi va u Shimoliy Koreya haqida eng foydali ma'lumotlar manbaidir,-deya yozgan⁴. Lekin, 1999-yilga kelib u Yonhap agentligi bilan birlashib ketadi. Ammo shunday bo'lishiga qaramay Naewoe News 2016-yilgacha Yonhap tarkibida bo'lsa ham ularning har oylik Shimoliy Koreya yangiliklari va ularning tahliliga bag'ishlab ingliz tilida nashr etiladigan “Vantage Point: Developments in North Korea” jurnalini chop ettirib kelgan. Bu yangiliklar jurnali 1978-yildan nashr etila boshlangan, ammo 2016-yilga kelib Yonhap agentligi tomonidan uning faoliyati tugatilgan. Bunga sabab 2016-yilda Yonhap tomonidan Shimoliy Koreya portalining ochilishi deb o'ylayman, albatta Yonhapning o'zi bunday axborot bermagan. Lekin 2016-yilda Shimoliy Koreya haqida axborot beruvchi jurnal faoliyati to'xtatilib, yangi portal ish boshlashi istalgan odamda shunday fikrni shakllanishiga sabab bo'ladi. Balki bu zamonaviy texnologiyalardan faol foydalanish uchun qilingan bo'lishi ham mumkin.

Yonhap faqatgina o'z mamlakatidagi OAV bilan emas, balki 90 dan ortiq xalqaro, koreys bo'lmagan axborot agentliklari bilan turli kelishuvlarga ega. Hatto u Shimoliy Koreyaning KCNA tashkiloti, yani Koreya markaziy axborot agentligi bilan ham shartnoma imzolagan, bu 2002-yilda ikki tomon kelishgan holda imzolangan xizmatlar almashish shartnomasidir. Bu chet ellik axborot agentliklari va OAV bilan ishlaydigan bitta bo'lgan simli aloqa xizmati va o'z veb-saytida koreys, ingliz, xitoy, yapon, ispan, arab va frantsuz tillarida cheklangan, ammo erkin foydalanish mumkin bo'lgan yangiliklar tanlovini taqdim etgan. Yonhap axborot agentligi Janubiy Koreyaning eng yaxshi agentligi hisoblanib, chet davlatlarda 60 ga yaqin, o'z

² Yonhap News Agency: Gatekeeper of International News in Korea. Won Ho Chang, Jung Ho Han. Korean studies University of Hawai'i Press. Volume 9, 1985. p.p. 14-37.

³ Hoare, James E.; Pares, Susan (2005). *A Political and Economic Dictionary of East Asia (series: Political and Economic Dictionaries) (1st ed.)*. London: Routledge – Taylor and Francis Group. p. 348. ISBN 978-1857432589.

⁴ Yonhap News Agency: Gatekeeper of International News in Korea. Won Ho Chang, Jung Ho Han. Korean studies University of Hawai'i Press. Volume 9, 1985. p.p. 14-37.

mamlakatida esa 600 dan ortiq muxbirga egadir. Uning eng yirik a'zosi KONAC – Koreys axborot agentligi komissiyasidir.

Janubiy Koreya hukumati Yonhap agentligi faoliyatiga baho berib, 2003-yilda Yonhap News axborot agentliklarini rag'batlantirish to'g'risidagi qonun qabul qilgandan so'ng mamlakatning vakillik axborot agentligi etib tayinladi. Ushbu qonunga ko'ra, Yonhap axborot suverenitetini himoya qilish, axborot bo'shlig'ini kamaytirish va odamlarning bilish huquqini qondirish uchun o'zining jamoat mas'uliyatini bajaradi. Bundan tashqari aynan ushbu qonun asosida Janubiy Koreya imijini targ'ib qilish majburiyati ham yuklanadi. Tashkilotning mulkchilik tuzilishi bu xususiyatni aks ettiradi. Yuqorida aytganimizdek kompaniyaning eng yirik aktsiyadori Koreya axborot agentligi komissiyasi bo'lib, qonun asosida tashkil etilgan va kompaniyaning 30,77 foiz ulushiga ega. Qolgan aktsiyalarga KBS va MBC jamoat teleradiokompaniyalari, shuningdek, yirik gazetalar va bir qancha mahalliy nashrlar egalik qiladi. Ushbu mulkchilik tuzilishi Yonhapning vakillik axborot agentligi maqomidan kelib chiqadi va uni xususiy yoki boshqa axborot agentliklaridan ajratib turadi. Balki shuning uchun hamdir faoliyati davomida ko'plab tandiqchilar Yonhap rahbaryatini davlat organlariga yaqinligini gapirib, bu matbuot erkinligiga ta'sir qiladi deb aytishadi, garchi Yonhap hukumatni tanqid qilib kelsa ham.

Yonhap axborot agentligining jurnalistik faoliyati ham zo'r bo'lib, unda 600 dan ortiq jurnalist va muhbirlar faoliyat olib boradi. Yuqorida aytganimizdek Yonhap Shimoliy Koreya xabarlariga ixtisoslashgan qismga ega bo'lgan kam sonli Janubiy Koreya axborot agentligi hisoblanadi. Va hattoki ushbu agentlikning ikki muhbiri 2009-yilda Shimoliy Koreyaning ko'p yillik Prezident Kim Chen Irning merosxo'ri Kim Chen In ekanligi haqidagi axborotni oshkor qilgani uchun 2010-yilga kelib Koreya Jurnalistlari Assotsiatsiyasining eksklyuziv hikoyasi uchun katta jurnalistika mukofotiga sazovor bo'lishgan.

Yonhap siyosat, biznes va ijtimoiy mavzulardan tortib, madaniyat va sportgacha bo'lgan barcha yangiliklar mavzularini yoritadi. Agentlik har kuni 3000 dan ortiq yangiliklar, jumladan, maqolalar, fotosuratlar, grafikalar va videolarni ishlab chiqaradi. Ushbu materiallar 180 ga yaqin mahalliy axborot vositalari, 120 dan ortiq portallar va yangi media platformalar, 210 ga yaqin davlat vazirliklari va mahalliy hokimiyat organlari hamda 250 ga yaqin xususiy tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatmoqda.

Yonhap News – Janubiy Koreyada jamoatchilik fikrini shakllantirishda markaziy rol o'ynaydi. Madaniyat, sport va turizm vazirligi huzuridagi media qudratini o'rganuvchi bo'lim tomonidan 2016-yilning yanvar oyida Yonhap agentligi Janubiy Koreya media kompaniyalari orasida 3-o'rinni egalladi. Har bir kompaniyaning gazeta, televideniya, radio va onlayn nashrlar kabi turli nashrlarining media qudratini birlashtirgan holda, Yonhap News va Yonhap TV kabi Yonhap bo'linmalarining umumiy media kuchi 9,9 foizga yetdi. Bu KBS va uning bo'linmalari 17,5 foiz va Chosun Ilbo gazetasi va uning bo'linmalaridan 11,1 foiz ortda qolgan. Nufuzi ortib borayotgan onlayn yangiliklar turkumida Yonhap News 18,6 foiz ulush bilan yetakchi o'rinni egallagan. Shunday bo'lishiga qaramasdan dunyoning yetakchi mamlakatlari bo'lmish Yaponiyaning Kyodo agentligi yoki Xitoyning Sinxua axborot agentligi bilan sezilarli farq qiladi. Kyodo News 1000 dan ortiq jurnalisti bilan Yonhapdan deyarli ikki barobar ko'p bo'lsa, Sinxua esa 5000 ga yaqin jurnalist bilan qariyb 10 barobarga ko'p. Shuningdek, Kyodo 36 mamlakatda 45 ta sohada 120 muxbirga ega, Sinxua agentligi esa dunyoning 107 ta yo'nalishida 500 ga yaqin xodimga ega. Yonhap News ushbu bo'shliqni

bartaraf etishni va mamlakatning dunyodagi eng yaxshi 10 ta iqtisodiy kuch sifatidagi maqomiga mos keladigan yaxshiroq global axborot agentligiga aylanishni rejalashtirmoqda. U xorijdagi tarmog'ini kengaytirish va xorijiy tillar, mahalliy va Shimoliy Koreya yangiliklarini yetkazib beruvchisi sifatida jamoatchilik rolini kuchaytirish orqali dunyoning yetakchi axborot agentliklari bilan raqobatlashadi. Yonhap Janubiy Koreyadan olti tilda – ingliz, xitoy, yapon, arab, ispan va fransuz tillarida yangiliklarni taqdim etish orqali Janubiy Koreyani dunyo bilan bog'laydi⁵.

Yonhap axborot agentligi faoliyati davomida juda kata loyiha, yangilik va o'zgartrishlar kiritib kelgan bo'lib, ulardan eng muhimlaridan biri yangiliklar uzatuvchi kabel telekanalidir. Yonhap tomonidan 2011-yilda asos solingan, Janubiy Koreyaning haftada 7 kun, 24 soat davomida yangiliklar uzatuvchi kabel telekanali *Yonhap News TV* (koreyscha: 연합뉴스TV) deb nomlanadi^{6,7}. Uning maqsadi jamoatchilik uchun yangiliklarni tez, oson, aniq va xolis tarzda yoritishdir.

Xulosa qilib aytganda, Yonhap News agentligi — Janubiy Koreyada axborot siyosatini amalga oshiruvchi asosiy tashkilotlardan biri bo'lib, u xalqaro miqyosda o'z obro'siga ega. Ushbu agentlik bugungi kunda bosma OAV, televizion axborot xizmatlari, internet portali, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng ko'lamda faoliyat yuritadi. U dunyoning 70 dan ortiq davlatida o'z muxbirlariga ega bo'lib, global va mahalliy yangiliklarni tezkorlik bilan yetkazib berishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rib chiqdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yonhap News Agency: Gatekeeper of International News in Korea. Won Ho Chang, Jung Ho Han. Korean studies University of Hawai'i Press. Volume 9, 1985.
2. Hoare, James E.; Pares, Susan (2005). A Political and Economic Dictionary of East Asia (series: Political and Economic Dictionaries) (1st ed.). London: Routledge – Taylor and Francis Group. p. 348. ISBN 978-1857432589.
3. Yonhap News Agency: Gatekeeper of International News in Korea. Won Ho Chang, Jung Ho Han. Korean studies University of Hawai'i Press. Volume 9, 1985.
4. Yonhap News Agency Official Website. <https://www.yna.co.kr/eng>.
5. Shin Hae-in (30 November 2011). "New cable channels go on air"

⁵ Yonhap News Agency Official Website. <https://www.yna.co.kr/eng>. (20.05.2025)

⁶ Yonhap News Agency Official Website. <https://www.yna.co.kr/eng>. (20.05.2025)

⁷ Shin Hae-in (30 November 2011). "[New cable channels go on air](#)".